

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2019 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)

Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 300,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,1 % ga oshganini ko'rish mumkin. Hududlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliqda 3883,6 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish hakiga nisbatan 168,8 %), Bekobod shahrida 2949,9 ming so'mni (128,2 %), Nurafshon shahrida 2491,2 ming so'mni (108,3%) tashkil etdi. Aksincha, Bekobod tumanida 1483,2 ming so'mni (64,5%), Oqqo'rg'on tumanida 1536,3 ming so'mni (66,8 %), Parkent tumanida 1551,3 ming so'mni (67,4%), Bo'ka tumanida 1567,5 ming so'mni (68,1), Piskent tumanida 1622,6 ming so'mni (70,5 %) tashkil etib pastligini ko'rish mumkin.





Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yanvar-iyun oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)






Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbati

(2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>	<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	<i>yanvar-iyunga nisbatan %</i>
Viloyat bo'yicha:	1768,5	2300,7	130,1
shaharlar:			
Nurafshon	1694,3	2491,2	147,0
Olmaliq	2742,0	3883,6	141,6
Angren	1528,7	1863,2	121,9
Bekobod	2289,9	2949,9	128,8
Chirchiq	1717,6	2154,8	125,5
Ohangaron	1623,6	2121,7	130,7
Yangiyo'l	1363,9	1853,7	135,9
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	1319,5	1536,3	116,4
Ohangaron	1369,6	1919,2	140,1
Bekobod	1147,1	1483,2	129,3
Bo'stonliq	1361,2	1836,1	134,9
Bo'ka	1265,4	1567,5	123,9
Zangiota	1432,7	2075,1	144,8
Qibray	1770,2	1989,6	112,4
Quyichirchiq	1307,1	1733,9	132,7
Parkent	1253,6	1551,3	123,7
Piskent	1260,9	1622,6	128,7
O'rtachirchiq	1519,2	1810,7	119,2
Chinoz	1322,2	1732,3	131,0
Yuqorichirchiq	1400,8	1813,1	129,4
Yangiyo'l	1670,5	1943,0	116,3
Toshkent	1436,0	1847,0	128,6




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)





Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari % da (2019 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ish haqi. 2019 yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



Ta'limda 1030 ta muassasada 77131 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 28,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 773392,8 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 22,9 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1763,6 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 136,1 %ga o'sdi;



Sanoatda 46 ta korxonada 80918 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 29,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1445331,9 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 42,7 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5782,3 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 128,0 %ga o'sdi;



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 105 ta muassasada 38680 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 303636,0 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 9,0 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1354,8 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 138,2 %ga o'sdi;



Tashish va saqlashda 6 ta korxonada 4407 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 34169,9 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,0 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1473,3 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 119,9 %ga o'sdi;



Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 82 ta muassasada 3727 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 69313,8 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,0 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3066,7 mln.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 137,1 %ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2300650,0 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 130,1 % ga o'sishi kuzatildi.

***Toshkent viloyati statistika
boshqarmasiining
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi***
Tel: (71) 230-86-78, 230-86-79